2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK: 342.7:316.42:004

Rustamov Sanjar Suyunovich,
Islom Karimov nomidagi TDTU yuriskonsulti,
2-darajali adliya maslahatchisi

HUQUQIY TENGLIK VA IJTIMOIY ADOLATNING DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI: INSTITUTSIONAL VA AKSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy demokratik huquqiy davlat sharoitida huquqiy tenglik va ijtimoiy adolat prinsiplarining mazmun-mohiyati, institutsional tabiati hamda transformatsion xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy va huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli transformatsiya, ijtimoiy tabaqalanish va davlat boshqaruvining yangi shakllari sharoitida huquqiy tenglikni faqat formal-normativ tenglik bilan cheklash yetarli emasligi asoslanadi. Tadqiqotda huquqiy tenglikning formal modelidan substansional, ya’ni real imkoniyatlar va amaliy natijalarga yo‘naltirilgan modelga o‘tish zarurati ochib beriladi. Qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi, tiyilish va muvozanatlash mexanizmlari, inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari hamda ijtimoiy adolatning institutsional mexanizmlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli tengsizlik, algoritmik boshqaruv, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va inklyuziv infratuzilma masalalarining huquqiy tenglik mazmuniga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: huquqiy tenglik, ijtimoiy adolat, demokratik davlat, huquqiy davlat, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, proporsionallik, raqamli tengsizlik, inklyuzivlik, ijtimoiy tabaqalanish, raqamli transformatsiya, konstitutsiyaviy qadriyatlar.

РОЛЬ ПРАВОВОГО РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ И АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье с социально-философской и правовой точки зрения анализируются содержание, институциональная природа и трансформационные особенности принципов правового равенства и социальной справедливости в условиях современного демократического правового государства. Обосновывается, что в условиях глобализации, цифровой трансформации, социальной стратификации и новых форм государственного управления ограничение правового равенства исключительно формально-нормативным равенством уже недостаточно.

Раскрывается необходимость перехода от формальной модели правового равенства к субстанциональной модели, ориентированной на обеспечение реальных возможностей и практических результатов. Законность, верховенство права, разделение властей, система сдержек и противовесов, конституционные гарантии прав человека и институциональные механизмы социальной справедливости рассматриваются как взаимосвязанные элементы единой системы. Особое внимание уделяется цифровому неравенству, алгоритмическому управлению, цифровизации государственных услуг и развитию инклюзивной инфраструктуры.

Ключевые слова: правовое равенство, социальная справедливость, демократическое государство, правовое государство, права человека, верховенство права, пропорциональность, цифровое неравенство, инклюзивность, социальная стратификация, цифровая трансформация, конституционные ценности.

THE ROLE OF LEGAL EQUALITY AND SOCIAL JUSTICE IN THE FORMATION OF A DEMOCRATIC RULE-OF-LAW STATE: AN INSTITUTIONAL AND AXIOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. This article examines the content, institutional nature and transformative characteristics of the principles of legal equality and social justice in a modern democratic constitutional state from socio-philosophical and legal perspectives. It argues that under conditions of globalization, digital transformation, increasing social stratification and emerging forms of public administration, legal equality can no longer be reduced to formal and normative equality. The study substantiates the transition from a formal model of equality to a substantive model focused on ensuring genuine opportunities and practical outcomes. The rule of law, separation of powers, checks and balances, constitutional guarantees of human rights, and institutional mechanisms of social justice are considered as interconnected elements of a single system. Particular attention is paid to the digital divide, algorithmic governance, digitalization of public services and inclusive infrastructure.

Keywords: legal equality, social justice, democratic state, rule of law, human rights, rule of law principle, proportionality, digital divide, inclusiveness, social stratification, digital transformation, constitutional values.

Kirish. XXI asrda davlat va jamiyat munosabatlarining mazmuni tubdan o‘zgarib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning yangi shakllari, davlat boshqaruvining raqamli platformalarga ko‘chishi hamda fuqarolarning huquqiy va siyosiy faolligining ortishi demokratik davlatchilikning an’anaviy institutlari oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Mazkur jarayonlar, ayniqsa, huquqiy tenglik va

ijtimoiy adolat tushunchalarining mazmunini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Huquqiy tenglik uzoq vaqt davomida barcha shaxslarning qonun oldida bir xil maqomga ega bo‘lishini anglatuvchi formal-normativ kategoriya sifatida talqin qilindi. Biroq real ijtimoiy munosabatlarda shaxslarning iqtisodiy, ijtimoiy, ta’limiy, texnologik va boshqa imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli huquqiy jihatdan teng norma amaliyotda turli ijtimoiy guruhlar uchun turlicha natija berishi mumkin. Demak, zamonaviy demokratik davlatda tenglikni faqat bir xil huquqiy qoidalarni qo‘llash orqali ta’minlash emas, balki ushbu huquqlardan amalda foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ushbu masalani konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab berdi. Xususan, Konstitutsiyaning 14-moddasida davlat o‘z faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan. 19-moddada esa barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi hamda imtiyozlarning faqat qonunga muvofiq belgilanib, ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi sharti mustahkamlangan.[1]

Shu nuqtai nazardan, huquqiy tenglik va ijtimoiy adolatni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yagona konstitutsiyaviy-aksiologik tizim sifatida tadqiq etish dolzarbdir. Chunki tenglik adolatning huquqiy o‘lchamini, adolat esa tenglikning ijtimoiy mazmunini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy demokratik davlatchilik sharoitida huquqiy tenglik va ijtimoiy adolat prinsiplarining transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy hamda konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtai nazardan ochib berishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun huquqiy tenglikning formal va substansional modellari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, ijtimoiy adolatning davlat institutlari faoliyatidagi o‘rnini ochib berish, proporsionallik va teng imkoniyatlar tamoyillarining mazmunini tahlil qilish, raqamli tengsizlikning huquqiy tenglikka ta’sirini aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitida ushbu prinsiplarni institutsional jihatdan takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, institutsional, aksiologik, qiyosiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar tashkil etadi. Huquqiy tenglik va ijtimoiy adolat hodisalari faqat normativ-huquqiy kategoriya sifatida emas, balki davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab tizimida shakllanuvchi ijtimoiy institut sifatida o‘rganildi.

Tizimli yondashuv orqali huquqiy tenglikning qonun ustuvorligi, inson huquqlari, davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosat bilan uzviy aloqasi ochib berildi.

Institutsional yondashuv davlat organlari va huquqni qo‘llash mexanizmlarining tenglik va adolatni ta’minlashdagi rolini aniqlashga xizmat qildi. Aksiologik yondashuv esa inson qadr-qimmati, erkinlik, adolat, tenglik va birdamlikni huquqiy tizimning fundamental qadriyatlari sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiyaning huquqiy tenglikka ta’sirini o‘rganishda inklyuzivlik va raqamli tengsizlik konsepsiyalaridan foydalanildi. Mazkur yondashuv huquqiy tenglikni faqat qonun oldidagi tenglik bilan cheklamasdan, shaxsning davlat xizmatlari, axborot, ta’lim, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Huquqiy tenglikning formal modelidan substansional modelga o‘tish. Huquqiy tenglikning klassik talqinida barcha shaxslarning qonun oldida tengligi asosiy mezon hisoblanadi. Mazkur yondashuv davlat tomonidan fuqarolarga nisbatan asossiz farqlashga yo‘l qo‘ymaslikni, umumiy huquqiy qoidalarni bir xil qo‘llashni va imtiyozlarni faqat qonun bilan asoslashni talab etadi. Bunday yondashuv huquqiy davlatning muhim sharti bo‘lsa-da, zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi sababli uning o‘zi yetarli emas.

Formal tenglik barcha shaxslarni bir xil boshlang‘ich huquqiy holatda tasavvur qiladi. Amalda esa shaxslarning iqtisodiy imkoniyatlari, ta’lim darajasi, yashash hududi, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, ijtimoiy mavqeyi va boshqa omillar turlicha bo‘lishi mumkin. Natijada bir xil huquqiy imkoniyatlar turli shaxslar uchun turlicha real natijalarni yuzaga keltiradi.

Shuning uchun zamonaviy huquqiy davlat uchun substansional tenglik konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Substansional tenglik huquqiy jihatdan bir xil maqomni ta’minlash bilan birga, real imkoniyatlar tengligini yaratishni ham nazarda tutadi. Bu, o‘z navbatida, davlatdan ayrim ijtimoiy guruhlar uchun qo‘shimcha kafolatlar, ijtimoiy xizmatlar va inklyuziv infratuzilmani shakllantirishni talab qilishi mumkin.

Bunda tenglik va differensial yondashuv bir-biriga zid tushunchalar emas. Aksincha, obyektiv jihatdan turlicha sharoitda bo‘lgan shaxslarga bir xil munosabatda bo‘lish ayrim holatlarda real tengsizlikni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy jihatdan asoslangan differensial yondashuv, agar u qonuniy maqsadga, oqilona mezonlarga va mutanosiblik talablariga javob bersa, huquqiy tenglikni buzish emas, balki uning real mazmunini ta’minlash vositasiga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy adolat va demokratik davlatchilikning institutsional asoslari. Ijtimoiy adolat demokratik davlatning faqat ijtimoiy siyosatiga taalluqli tushuncha emas. U davlat hokimiyatining tashkil etilishi, qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash, sud-huquq tizimi va davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarining umumiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Demokratik davlat institutlarining legitimligi ko‘p jihatdan fuqarolarning ushbu institutlarni adolatli deb qabul qilishiga bog‘liq. Qonun mazmunan

mukammal bo‘lsa-da, uning amalda turlicha yoki tanlab qo‘llanishi davlat institutlariga bo‘lgan ishonchni susaytiradi. Aksincha, qonunning bir xilda, shaffof va oldindan prognoz qilinadigan tarzda qo‘llanishi huquqiy ishonchni mustahkamlaydi.

Shu jihatdan qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Qonun ustuvorligi davlat hokimiyatining huquq bilan chegaralanganligini anglatsa, ijtimoiy adolat ushbu huquqiy tartibning inson qadr-qimmati va ijtimoiy manfaatlarga mosligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat arxitekturasining institutsional va aksiologik uyg‘unligi aynan shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Hokimiyatlar bo‘linishi, tiyilish va muvozanatlash tizimi, sud mustaqilligi, inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari va fuqarolik jamiyati institutlari nafaqat hokimiyatni tashkil etish vositalari, balki adolatni institutsional ta’minlash mexanizmlaridir.

Proporsionallik prinsipi va teng imkoniyatlar. Huquqiy tenglikning zamonaviy mazmunini aniqlashda proporsionallik prinsipi alohida ahamiyatga ega. Davlat tomonidan shaxs huquqlariga ta’sir ko‘rsatuvchi har qanday huquqiy chora qonuniy maqsadga ega bo‘lishi, ushbu maqsadga erishish uchun yaroqli va zarur bo‘lishi hamda shaxs huquqlariga yetkaziladigan cheklov bilan ko‘zlangan manfaat o‘rtasida oqilona muvozanatni saqlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, ularni faqat qonunga muvofiq va zarur doirada cheklash mumkinligi bilan bog‘liq qoidalar mazkur yondashuv uchun muhim konstitutsiyaviy asos yaratadi.[2]

Proporsionallikning ahamiyati ayniqsa davlatning nazorat, ma’muriy boshqaruv va huquqni muhofaza qiluvchi faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. Davlat organining qonuniy maqsadga erishish uchun tanlagan vositasi shaxsning huquq va erkinliklarini ortiqcha cheklamasligi kerak. Shu ma’noda proporsionallik huquqiy tenglikni formal prinsipdan amaliy mezonga aylantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Teng imkoniyatlar masalasi ham aynan shu doirada ko‘rilishi lozim. Ijtimoiy adolat davlatdan barcha fuqarolarga mutlaqo bir xil natijani ta’minlashni emas, balki o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratishni talab etadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, axborot va davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi ushbu modelning amaliy ifodasidir.

Raqamli tengsizlik va huquqiy tenglikning yangi o‘lchami. Raqamli transformatsiya huquqiy tenglik tushunchasining mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda ko‘plab davlat xizmatlari, ta’lim imkoniyatlari, ishga joylashish mexanizmlari, bank va moliyaviy xizmatlar, axborot resurslari hamda fuqarolik ishtirokining ayrim shakllari raqamli muhitga ko‘chmoqda.

Bunday sharoitda internet, raqamli qurilmalar yoki tegishli raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan shaxsning formal jihatdan boshqa fuqarolar bilan teng huquqqa ega bo‘lishi amaliy imkoniyatlarning tengligini avtomatik ravishda

anglatmaydi. Shu sababli raqamli tengsizlik zamonaviy huquqiy tenglikning muhim muammolaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli tengsizlikni faqat texnik infratuzilma masalasi sifatida baholash noto‘g‘ri bo‘ladi. Uning huquqiy jihati ham mavjud. Agar davlat xizmatlari tobora ko‘proq raqamli shaklga o‘tayotgan bo‘lsa, davlat fuqarolarning ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlashi, raqamli savodxonlikni rivojlantirishi va texnologik jihatdan zaif guruhlar uchun muqobil mexanizmlarni saqlab qolishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining axborot olish va Internetdan foydalanish uchun shart-sharoit yaratishga oid qoidalari raqamli huquqlar va inklyuzivlik masalasining konstitutsiyaviy ahamiyatini ko‘rsatadi.[3]

Bundan tashqari, algoritmik qaror qabul qilishning kengayishi ham yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi. Agar kredit ajratish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ishga qabul qilish yoki boshqa muhim sohalarda algoritmik tizimlardan foydalanilsa, ushbu tizimlarning shaffofligi, diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymasligi, inson nazorati va shikoyat qilish imkoniyatlari ta’minlanishi kerak. Aks holda raqamlashtirish boshqaruv samaradorligini oshirish bilan birga, ko‘zga tashlanmaydigan yangi tengsizlik shakllarini ham yuzaga keltirishi mumkin.

Formal va noformal institutlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir. Huquqiy tizimning samaradorligi faqat qonunlarning mazmuni bilan belgilanmaydi. Jamiyatda shakllangan urf-odatlar, ijtimoiy me’yorlar, tarixiy tajriba, siyosiy madaniyat va axloqiy tasavvurlar ham huquqiy institutlarning ishlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli demokratik davlatchilikni barpo etishda formal institutlar bilan noformal institutlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimdir. Qonun jamiyat tomonidan qabul qilinadigan, tushuniladigan va amalda qo‘llab-quvvatlanadigan ijtimoiy qadriyatlarga zid bo‘lmasligi kerak. Shu bilan birga, noformal amaliyotlar inson huquqlari va qonun ustuvorligi talablariga zid bo‘lsa, ularni huquqiy modernizatsiya orqali bosqichma-bosqich o‘zgartirish zarur.

Bu jarayonda milliy mentalitet va tarixiy an’analarni mutlaq mezon sifatida qabul qilish ham, ularni butunlay inkor etish ham to‘g‘ri emas. Optimal model universal huquqiy qadriyatlar bilan milliy ijtimoiy tajribaning konstruktiv uyg‘unligiga asoslanadi.

Huquqiy tenglik, ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlik. Ijtimoiy adolatning muhim funksiyalaridan biri jamiyatdagi ziddiyatlarni konstruktiv huquqiy mexanizmlar orqali boshqarishdan iborat. Ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi, imkoniyatlarning noteng taqsimlanishi va davlat institutlariga nisbatan ishonchsizlik ijtimoiy beqarorlik omillariga aylanishi mumkin.

Shu ma’noda huquqiy tenglik va ijtimoiy adolat faqat individual huquqlarni himoya qilish vositasi emas, balki jamiyatning ichki barqarorligini ta’minlash mexanizmi hamdir. Fuqarolar davlat institutlari tomonidan qabul qilinayotgan

qarorlarning qonuniy, asoslangan va adolatli ekaniga ishonsa, ijtimoiy nizolarni huquqiy vositalar orqali hal etish imkoniyati ortadi.

Bu holat davlatga bo‘lgan ishonchning shakllanishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Ishonch esa zamonaviy davlat boshqaruvining eng muhim ijtimoiy kapital shakllaridan biridir. Shaffoflik, hisobdorlik, raqamli xizmatlarning qulayligi, korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning samaradorligi va sud-huquq tizimining adolatliligi mazkur ishonchning institutsional asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ilmiy yangilik. Tadqiqot natijalari huquqiy tenglik va ijtimoiy adolatning zamonaviy sharoitdagi mazmunini quyidagi o‘zaro bog‘liq jihatlar orqali tavsiflash imkonini beradi.

Birinchidan, huquqiy tenglikni faqat formal-normativ kategoriya sifatida talqin qilish zamonaviy ijtimoiy voqelikni to‘liq aks ettirmaydi. Huquqiy tenglik real imkoniyatlar, huquqlardan foydalanish imkoniyati va amaliy natijalar bilan to‘ldirilishi kerak.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat davlat siyosatining alohida yo‘nalishi emas, balki qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash, sud faoliyati, ma’muriy boshqaruv va davlat xizmatlarining umumiy mezoni sifatida qaralishi lozim.

Uchinchidan, raqamlashtirish sharoitida tenglikning yangi — texnologik va axborot o‘lchami shakllanmoqda. Shu sababli raqamli infratuzilma, raqamli savodxonlik va algoritmik tizimlarning adolatliligi huquqiy tenglikning tarkibiy elementlariga aylanmoqda.

To‘rtinchidan, ijtimoiy adolat va huquqiy tenglikni ta’minlashda proporsionallik prinsipi muhim metodologik va amaliy vosita hisoblanadi. Davlat tomonidan qo‘llaniladigan huquqiy vositalar qonuniy maqsadga muvofiq, zarur va oqilona bo‘lishi talab etiladi.

Beshinchidan, demokratik davlatchilikning legitimligi huquqiy institutlarning mavjudligi bilangina emas, balki ushbu institutlarning jamiyat tomonidan adolatli va samarali deb qabul qilinishi bilan ham belgilanadi.

Muhokama. Huquqiy tenglik va ijtimoiy adolatning transformatsiyasi davlatning fuqarolarga munosabatini ham o‘zgartiradi. An’anaviy modelda davlat asosan umumiy qoidalarni belgilovchi va ularning bajarilishini nazorat qiluvchi institut sifatida namoyon bo‘lsa, zamonaviy ijtimoiy-demokratik modelda davlat fuqarolarning huquqlardan amalda foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi subyekt sifatida ham ko‘riladi.

Bunday yondashuv davlatning paternalistik xarakterini kuchaytirishni anglatmaydi. Aksincha, davlatning asosiy vazifasi insonning avtonomligi va tashabbuskorligini ta’minlaydigan huquqiy va institutsional muhit yaratishdan iborat. Shu jihatdan tenglik va erkinlik o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir.

Meritokratiya va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi munosabat ham shu nuqtai nazardan baholanishi lozim. Faqat natijaga asoslangan meritokratik yondashuv boshlang‘ich imkoniyatlar teng bo‘lmagan sharoitda ijtimoiy tafovutlarni chuqurlashtirishi mumkin. Shu sababli meritokratik tamoyil real teng imkoniyatlar

tizimi bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar uchun qo‘shimcha kafolatlar esa asossiz imtiyoz emas, balki substansional tenglikni ta’minlash vositasi sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, ijobiy diskriminatsiya yoki positive action mexanizmlaridan foydalanishda ehtiyotkorlik zarur. Bunday choralar aniq ijtimoiy muammoni bartaraf etishga qaratilgan, vaqt va maqsad jihatidan asoslangan, mutanosib hamda muntazam baholab boriladigan bo‘lishi lozim. Aks holda tenglikni ta’minlashga qaratilgan mexanizmning o‘zi yangi adolatsizlik manbaiga aylanishi ehtimoli mavjud.

Amaliy taklif va tavsiyalar. O‘zbekistonda huquqiy tenglik va ijtimoiy adolatning substansional modelini rivojlantirish uchun, avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ularning ijtimoiy ta’sirini oldindan baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda yangi norma qaysi ijtimoiy guruhlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi, mavjud tengsizliklarni kuchaytirishi yoki kamaytirishi hamda uning amaliy ijrosi uchun qanday institutsional resurslar talab qilinishi baholanishi lozim.

Ikkinchidan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida “raqamli inklyuzivlik” tamoyilini kuchaytirish zarur. Raqamli xizmatlardan foydalana olmaydigan yoki foydalanish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun muqobil xizmat kanallarining saqlanishi, aholining raqamli savodxonligini oshirish va hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish huquqiy tenglikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Uchinchidan, davlat organlari faoliyatida qarorlarning shaffofligi va asoslanganligini oshirish, fuqarolarning ma’muriy qarorlar ustidan samarali shikoyat qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bu nafaqat huquq buzilishlarining oldini oladi, balki davlat institutlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, algoritmik qaror qabul qilish tizimlari joriy etilayotgan sohalarda inson huquqlari, diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, ma’lumotlarning himoyasi, qarorni tushuntirish va inson tomonidan qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi huquqiy kafolatlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, sud va huquqni qo‘llash amaliyotida proporsionallik prinsipining mazmunini yanada chuqurlashtirish, davlat organlari tomonidan qo‘llaniladigan cheklovlarning zarurligi va mutanosibligini asoslash madaniyatini kuchaytirish zarur.

Xulosa. Huquqiy tenglik va ijtimoiy adolat zamonaviy demokratik davlatchilikning bir-biridan ajralmas fundamental prinsiplari hisoblanadi. Ularning mazmuni ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, raqamli transformatsiya, yangi ijtimoiy tabaqalanish shakllari va davlat boshqaruvining transformatsiyasi ta’sirida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, huquqiy tenglikni faqat barcha shaxslarning qonun oldida bir xil maqomga egaligi bilan cheklash zamonaviy ijtimoiy voqelik uchun yetarli emas. Tenglikning real mazmuni shaxslarning huquq va erkinliklardan amalda foydalanish imkoniyatlari, davlat xizmatlariga kirish darajasi, ijtimoiy va raqamli infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Ijtimoiy adolat esa davlat faoliyatining alohida yo‘nalishi emas, balki uning butun institutsional tizimini baholashning fundamental mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash, sud faoliyati, davlat boshqaruvi va raqamli xizmatlarning barchasi inson qadr-qimmati, tenglik, mutanosiblik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlikning davlat faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilanishi, fuqarolarning qonun oldida tengligi hamda inson huquqlarining bevosita amal qilishi mazkur transformatsiyaning muhim konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etadi.[1] [2]

Shunday qilib, huquqiy tenglik va ijtimoiy adolatning formal-deklarativ modelidan substansional, dinamik va inklyuziv modelga o‘tish demokratik huquqiy davlatchilikning legitimligi, barqarorligi va samaradorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Bunday model davlat institutlari va fuqarolar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy ziddiyatlarni huquqiy vositalar orqali boshqarish, raqamli tengsizlikni kamaytirish va inson qadr-qimmatini davlat siyosatining markaziga qo‘yish imkonini beradi.

Natijada huquqiy tenglik va ijtimoiy adolatni davlat-huquqiy tizimning statik atributi sifatida emas, balki jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga javob beradigan, o‘zini takomillashtirib boruvchi va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan dinamik institutsional mexanizm sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023. – 14, 15, 19, 20, 21, 33-moddalar.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Kriminologiya darsligi / Prof. M.H. Rustambaev tahriri ostida. – Toshkent: TDYUU, 2021.
4. Таштемиров А.А. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги // Innovative Achievements in Science. – 2025. – №... – Б. 82–90.
5. Таштемиров А.А., Комилов А.М.Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №7. – Б. 135–138.

6. Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971.
7. Dworkin R. Taking Rights Seriously. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1977.
8. Sen A. The Idea of Justice. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2009.
9. Habermas J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge: MIT Press, 1996.
10. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
11. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. – Paris, 1948.
12. United Nations. Sustainable Development Goals: Goal 10 – Reduced Inequalities. – New York: United Nations.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694